

Hurmatli Abituriyent!

Avvalo, Sizga mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari orasidan bizning **Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetini** tanlaganingiz uchun o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Bizning jamoa o'z oldiga zamonaviy bilimlarni egallab, sohaning yetuk mutaxassisi bo'lishni hamda jonajon Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shishni niyat qilgan intiluvchan yoshlarga o'z maqsadlariga yetishishida ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi va bor imkoniyatlarini safarbar etadi.

2020-2021 o'quv yilida **Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti** kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha **14 ta** bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida **1675** talabani qabul qiladi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yoshlarning oliy ta'lim olishlari uchun yaratilayotgan sharoitlar yildan-yilga kengayib, inson kapitaliga davlat tomonidan juda katta investitsiya kiritilmoqda. Bunday g'amxo'rlik natijasida talabalikka qabul qilingan yoshlar soni oxirgi uch yilda **uch barobarga** ortdi. Joriy yilda abituriyentlarning hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish to'liq masofadan amalga oshirildi. Bizning **Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga** kirish uchun **24067nafar** abituriyent hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazdilar.

Bugungi kunda butun jahonda kechayotgan pandemiya sababli mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari muddatlari kechiktirildi. Bu avvalo, Siz - yoshlarning salomatligingizni o'ylab, o'z bilimingizni namoyon qilish uchun qulay va xavfsiz shart-sharoit yaratish maqsadida qilindi.

Muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan kirish imtihonlari shaharlar va viloyatlardagi markaziy stadionlarda, ya'ni ochiq maydonlarda karantin talablariga qat'iy rioya etgan holda **2020-yil sentyabr oyining 2-sanasidan boshlab** o'tkazilishi rejalashtirildi.

Siz **pasportingiz va DTM ruxsatnomangiz bilan** ruxsatnomada ko'rsatilgan manzilga belgilangan vaqtda yetib kelishingiz zarur. Eslatib o'tamiz, DTM ruxsatnomalarini joriy yilning **22-avgustidan boshlab DTM sayti (www.dtm.uz)** dagi **shaxsiy kabinetingiz** orqali olishingiz mumkin!

Muhtaram Abituriyent!

Imtihon kuni belgilangan manzilga karantin qoidalariga rioya qilib, xavfsizligingizni ta'minlab, yaxshi kayfiyatda va o'z vaqtida yetib kelishingizni so'raymiz.

Aziz ota-onalar va yaqinlaringizdan imtihon kunlari uyda qolib, imtihon jarayonlarini onlayn kuzatib borishlarini so'raymiz.

Kirish imtihonlarining o'tish muddati, jadvali va natijalari hamda o'zingizni qiziqtirgan barcha savollarga javoblarni **www.dtm.uz saytidan** olishingiz, shuningdek **71 238-64-97, 71 238-64-85, 71 238-64-34, 71 238-65-17, 71 238-65-64 raqamli telefonlarga** murojaat etishingiz mumkin.

Unutmang, faqat puxta tayyorgarlik va kuchli bilim bilangina talaba bo'lish baxtiga muvaffaq bo'lishingiz mumkin. Shunday ekan, bir daqiqa ham bilim olish va o'z ustingizda ishlashdan to'xtatmang. Sizga ushbu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib olishingizda ulkan zafarlar tilaymiz.

Omad yor bo'lsin!

Hurmat bilan,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori

T.Teshabayev